

Globallashuv sharoitida yoshlar estetik tafakkurini shakllantirish masalalari.

Ulug'murodov E

Ushbu maqolada global krizis tufayli yuzaga chiqayotgan muammolar juda serqirra, keng qamrovli, tasavvurga sig'irib bo'lmaydigan darajada murakkab, ayni zamonda, juda dolzarb va keskinligi va uni bartaraf etish yo'llari haqida mulohaza etilgan.

XXI asr boshqa davlatlar singari O'zbekistonning ham oldiga yechimini topishi zarur bo'lgan bir qator muammolarni qo'ydi. Bu muammolarning yechimi bevosita yoshlar hayoti bilan chambarchas bog'liq. Chunki yoshlar ertangi kunning yaratuvchilari sifatida o'zlarining milliy davlatchiligi tarixini chuqur anglab yetishi, o'z qalblarida millatparvarlik tuyg'ularini barq urdirib yashashlari kerak. Shu bois yosh avlodni barkamol insonlar qilib tarbiyalashda avvalombor millatparvarlik, estetik tafakkurni shakllantirish muhim ekanligini hyech kim unutmasligi lozim. Bizdagi estetik g'oyalar bevosita ajdodlarimiz tomonidan yaratib qoldirilgan boy tarix va uning madaniy merosi orqali kelajakka muhrlanib qoladi. Mamlakatimiz mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab yoshlar tarbiyasiga aloxida e'tiborini karatdi. Ta'lim-tarbiya sohasida milliy qadriyatlarni shakllantirish va rivojlantirish asosiy o'rin tutadigan bo'ldi. Tariximiz, madaniyatimiz, milliy urf-odatlarimizga e'tibor kuchaydi. Yoshlarda milliy g'urur, estetik tafakkurini shakllantirish va mustahkamlashga alohida ahamiyat berilayotganligi fikrimiz isbotidir.

Chunki, bu davrda ijtimoiy-tarixiy va ma'naviy jihatdan nihoyatda zarur bo'lgan masala - yoshlar estetik tafakkurining shakllanishi va rivojlanishini tadqiq etish ham nazariy, ham amaliy jihatdan dolzarb masaladir.

Mazkur masalani benihoya dolzarbliigi yashayotgan davrimizning o'ziga xosligi bilan ham uzviydir. Zero, biz endlikda solumning barcha sohalarini qamrab olayotgan, barcha mamlakatlar amalda yagona bozorga birlashuvi haqidagi fikrlar oldinga surilayotgan, sanoat ishlab chiqarishi ko'p jihatdan transmilliy korporasiyalar nazorati ostida amalga osha boshlagan, internet tufayli har qanday yangi axborot (informasiya) sayyoramizning istagan joyiga yashin tezligida tarqalayotgan, olimlar Yerda yagona sivilizasiya qaror topishi xususida gapira boshlagan va, A.Toynbining ta'biri bilan aytganda, insoniyat,"**umumiy uy**", "**umumiy taqdir**" va umumiy tashvishlar

bilan yashashga kiririshayotgan[1], bir soʻz bilan aytganda, “**globalizasiya**” (globallashuv) deb atalayotgan jarayonlar sodir boʻlayotgan zamonda yashamoqdamiz.

Shunday ekan, estetik tafakkur masalasi ham endilikda nafaqat milliy, balki global xarakter ham kasb etadi. Lekin, globallashuv jarayoni hozircha faqat qandaydir mavhum ijobiy jihatlari bilangina emas, balki koʻproq «hozirgi davr global muammolari»ni vujudga keltirgani bilan xarakterlidir. Koʻpchilik mutafakkirlar bu davrni xatto **global krizis** (buxron) davri deb atamoqdalar. “XX asr krizisni kuchli his etish bilan boshlangan edi va shu hissiyot bilan poyoniga yetdi”, [2] - deb yozadi, masalan, rus faylasufi S.I.Dudnik. “Biz barcha jihatlardan qaraganda juda murakkab davrda yashayapmiz, - deydi boshqa rus faylasufi L.I.Belyayev.- Bu planetada hayotni saqlab qolish uchun tafakkurimiz paradigmasini oʻzgartirish, inson hayotiy faoliyati maqsadini oʻzgartirish taqozo etilayotgan davrdir.” [3] Hozirgi davr eng yangi fani sinergetika ham shu krizis holatini ifodalash uchun “global bifurkasiya nuqtasi” degan maxsus yangi tushunchani kiritgani, “katastrofalar nazariyasi”ni ishlab chiqqani bejiz emas.

Shuning uchun biz ham koʻpchilik mutafakkirlarning fikrlariga qoʻshilar ekanmiz, ishimizning mazkur qismida diqqatimizni aynan global krizislarga va ular bilan bogʻliq boʻlgan estetik muammolariga qaratamiz.

Ekzistensial faylasoʻflar fikricha, hozirgi globallashgan jamiyatda inson hayotga boʻlgan qiziqishini tobora yoʻqotib bormoqda. U tabiatning goʻzalligini ham, boshqa insonlar kayfiyatini ham his qilmaydi. Inson faqat aqli bilan yashar ekan, aql uni faqat oʻz manfaatlarini koʻzlashga undaydi. Natijada inson hayotidan ezgulik oʻrniga faqat foyda axtaradi. Bunday odamning ongi dastoʻrlashtirilgan mashinaga, kompyuterga oʻxshab qoladi va hayot goʻzalligidan zavqlanish tuygʻusidan mahrum bulib boradi, yani estetik tafakkuri shakllanmagan **robotga** oʻxshab qoladi. Inson ham kompyuterga oʻxshab, ichki begʻoʻbor hissiyotlaridan mahroʻm boʻlib qoladi. Bunday odamlarga hayot zerikarli, maʼnosiz boʻlib toʻyuladi. Yurakda bolalarga xos boʻlgan samimishshk va hayratlanish xususiyatlarini saqlab qolgan odamlar hayotning goʻzalligini his qilishi moʻmkin

Haydegger fikricha, inson ichki mohiyatining ochilishiga yordam beruvchi vositalar tasviriy sanʼat va musiqadir. Aynan shu sohalarda inson tabiatida yashirinib yotgan ijodkorlik kuchlari yuzaga chiqadi.

Ijod qilish, yangilik yaratish inson tabiatidagi eng katta moʻjiza-dir. Inson jamiyatda oʻz oʻrnini topa olmasa, bu ijodkorlik kuchini yuzaga chiqara

olmaydi. Uning qalbida yashirilib yotgan marvarid, xuddi dengiz tubida yashirilib yotgan marvaridday o'z nurini hech kimga yog'dira olmaydi. Inson qalbi yashirin qolar ekan, undagi nur ham xiralashadi. Qalbi yashirin insondan tashkil topgan jamiyat esa yopiq jamiyatga aylanib qoladi. Bunday jamiyatda inson ijod qilishdan mahrum bo'lib qoladi. U faqat moddiy manfaatlarga intilib yashaydi. Uning moddiy manfaatlari va ehtiyojlari birin-ketin paydo bo'lib, hech vaqt tugamaydi. Bu manfaatlar ketidan intilgan shaxs hech vaqt o'z maqsadiga erisha olmaydi.

Xaydegger fikricha, inson o'z qo'li bilan yaratgan narsalardagina joziba, go'zallik saqlanadi. Inson bu narsalarni yaratishda ularga uz mehrini, ruhiyatini beradi. Hozirgi zamonaviy sanoat mahsulotlari esa inson bilan bunday ruhiy aloqani yo'qotgan, natijada inson o'zi yaratgan moddiy olamdan ham begonalashib, narsalardan faqat manfaat keltirish jihatidan foydalanmoqda.

Chindan ham ushbu global krizis tufayli yuzaga chiqayotgan muammolar juda serqirra, keng qamrovli, tasavvurga sig'dirib bo'lmaydigan darajada murakkab, ayni zamonda, juda dolzarb va keskindir. Chunki ular hayotning bir yoki bir necha emas, balki barcha tomonlariga, ayrim millat, mamlakat, xattoki katta bir mintaqalargagina emas, balki butun insoniyatga dahldorligi, ayni paytda yechimi kechiktirib bo'lmas (masalan, sunami, yong'in, yadroviy yoki vodorod urushi kabi), mislsiz dolzarbliki bilangina emas, balki insoniyat erishgan ilmiy bilimning barcha sohalari birgalikda yechish mahol bo'lgan, shuning uchun dunyoqarash barcha tarixiy shakllarini (mifologiyani, dini, falsafani) ham jalb etilishini taqozo etadigan , bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan, ya'ni birining yechilishi boshqasining yechilishidan kelib chiqadigan muammolar sifatida maydonga chiqmoqda.

[1] Jurayev N. Tarix falsafasining nazariy asoslari. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – B.221.

[2] Dudnik S. I. Paradigmy istoricheskogo myshleniya XX veka: ocherki po sovremennoy filosofii kultury. SPb.: Sankt-Peterburgskoye filosofskoye obshchestvo, 2001.B.132.

[3]Belyayev M.I.Konsepsiya russkogo natsionalnogo gosudarstva. – M., 2006